

Oqoltin tuman Axborot – kutubxona markazi
Axborot – bibliografiya xizmati



9 may Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan
Tavsiya ro'yxat

Oqoltin - 2026

Xotira va qadrlash – xalqimizning asriy qadriyatlarini, ulug' fazilatlaridan. El-yurtining tinchligi, osoyishtaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar hamisha xalqimiz ardog'idadir. Ana shunday mardlik va jasorat namunasini ko'rsatganlarga, jang

maydonlarida jonini fido qilgan bobolarimiz, sabr-bardosh bilan katta qiyinchiliklarni yengib o'tgan nuroniy momolarimizni sharaflash, xotirasini abadiylashtirish, ularga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish mustaqillik yillarida yangicha ma'no-mazmun bilan boyidi.

Bu jihatlar yurtimizda keng nishonlanayotgan Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarda, ona diyorimizni, xalqimizning ozodlik va istiqlolini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoyi yurtdoshlarimizga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, hurmat-ehtiromda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 4 apreldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoni va "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bugungi tinch va osuda kunlarimiz uchun kurashgan, fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish, tinchlik-osoyishtalik yo'lida jonini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish xalqimizga xos azaliy qadriyat ekanining yana bir tasdig'i bo'ldi. Xalqimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat va himmat barcha bayramlarimiz singari "Xotira va qadrlash kuni" misolida ham yorqin namoyon bo'ladi. Inson – hayot gultoji. Uning qadri, hurmati har doim e'zozga loyiq. Xalqimizga xos xislatlar haqida gap ketsa, albatta, qadr-qimmat, mehr-oqibat kabi fazilatlar tilga olinadi. Keksalarni ardoqlash, ko'makka muhtojlarning hurmatini joyiga qo'yish qon-qonimizga singib ketgan fazilat. Ayniqsa, o'tganlarni xotirlash, aziz otaxonu-onaxonlarning duosini olmoqlik saodati o'zgacha.

Xotira shunday ruhiy-ma'naviy qudratki, u insonning insonligini anglatuvchi, uni o'tmish va istiqbol bilan bog'lab turuvchi buyuk qadriyat, ilohiy qudratdir. Xotirlash – xalq manfaati uchun kurashgan, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarni eslashdir. U olamdan o'tgan ajdodlarni eslashgina emas, asrlar mobaynida Vatan uchun kurashda halok bo'lganlar xotirasini hurmatlash hamdir. 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan xalqimizning ezgu fazilatlarini yanada yorqin namoyon bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi dahshatlarining guvohi bo'lgan kishilar tobora kamayib bormoqda.

Yoshlikning navqiron chog'larini urush olovlarida, janggohlarda o'tkazib, bugungi tinch va osoyishta hayotimiz uchun kurashgan insonlar jasorati beqiyosdir. Shu o'rinda Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi. Bu hol yoshlarni yurtparvarlik, mehnatsevarlik, ajdodlarining eng yaxshi an'analardan faxrlanish, ularga munosib vorislar bo'lish ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarining birida shunday degan edilar: "Tarixiy xotira – bu avvalo, hayot mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usini anglash demakdir".

Xotirani asrash, xotirani ehtiyot qilish – bu bizning o'zimiz va avlodlar oldidagi axloqiy burchimizdir. Xotira – bizning boyligimizdir.

Kechagi kun saboqlarini, xalqimiz kelajagi yo'lida jonini fido qilgan insonlarni xotirlash bugungi kunimizni qadrlashga o'rgatadi. Xotira bu – tarixdir. U kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Shu bois, inson o'z xotira boyligini qadrlaydi.

Bugun nishonlayotgan bayramimiz shunday bir kunki, u shu yurtda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi xonadon uchun bevosita daxldor bo'lgan, ularning hayotida qandaydir chuqur iz qoldirgan tarixiy sanadir.

Ayni shu kunda men el-yurtimiz bilan birga bo'lib, shu kunning ham xursandchiligini, ham iztirobini urush qatnashchilari, muhtaram faxriylarimiz bilan baham ko'rib, yana bir bor butun xalqimizni ana shu tarixiy sana bilan tabriklashni o'zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Yurtdoshlarimiz Xotira va qadrlash kunida o'tganlar xotirasi va ularning jasoratlari, ezgu ishlarini hurmat bilan yodga oladilar. Marhum ota-onalar, aka-opalar, qarindosh-urug', ustozlarni eslab qabristonlarga boradilar. Qabrlarni tozalab, atrofiga tol-terak, gulu rayhonlar ekib, yaxshi fazilatlarini xotiralashadi. Haqlariga xatmi Qur'on, duoi fohialar qilinadi. Biz bilan hamnafas yashayotgan faxriylarimiz, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan oilalar va umuman mehrimizga muhtoj kishilarga izzat-ikrom ko'rsatilib, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak beradilar.

Albatta, hayotiy dunyoda yashab, o'zidan ko'plab yaxshiliklar qoldirgan, xalqning xizmatida kamarbasta bo'lib, fohiy dunyodan rihlat qilgan ajdodlarimizni eslashimiz ham barchamizga lozim vazifa hisoblanadi. Zero, o'tganlarni eslash va ularga istig'for aytish, qabrlarini ziyorat qilish va ularning haqlariga duolar qilish hammamizning insoniy burchimizdir.

9 may Ikkinchi jahon urushida Germaniya ustidan Sovet ittifoqi g'alaba qozongan kun. Ushbu bayram dunyoning ko'plab mamlakatlarida harbiy parad, mushakbozlik va xalq sayllari bilan kutib olinadi. Urush qahramonlariga hurmat va e'tibor ko'rsatiladi. O'zbekistonda 9 may xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilingan. Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg'usi bilan barhayotdir. Xotira – kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi.

Qadr – insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag'ishlaydi. Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni ezozlash – odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag'rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

9-may Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan asarlarga tavsiya bibliografiyasi

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida [Albom] /X.Sultonov//

2. Усмонов, И. Қанот ва қаноат: [Эсдаликлар. Хотиралар. Ҳужжатлар]- Тошкент.: "Шарқ", 1996.-112 б.

3. Ҳошимов, Ў. Урушнинг сўнги қурбони [Матн]: ҳикоялар / Ў. Ҳошимов. – Т: О'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 б. []

4. Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси [Матн]: Китоб – альбом. – Т: Ўзбекистон НМИУ, 2020. - 320 б.

5. О'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi [Матн]: Китоб - альбом. – Т: О'zbekiston NMIU, 2020. – 320 б.

6. Вклад народа Узбекистана в победу над фашизмом [Текст] – Т: ИПТД Узбекистан, 2020.- 320 с.

Vaqtli matbuotdagi maqolalar

1. Sayid, S. Vatan uchun, millat uchun qalqon bo'lgan o'g'lonlar: [vatan tinchligi osayishtaligi yo'lida halok bo'lgan insonlar xotirasiga] /S.Sayid// Hurriyat. – 2025. – 18(1445)-son.- 1b.

2. Suvonov, N. Buxorolik o't yurak jangchi qasamyodi: [bir kun kelib o'zligim ustunlariko'xna qallalarimiz, millatimiz uyg'onishi uchun kurashamiz] /N.Suvonov// Hurriyat. – 2025. – 18(1445)-son.- 5b.

3. Ahmad, M. Urushning so'nggi ishtirokchisi O'skan bobo Hojimonov bilan gurung: [9-may xotira va qadrlash kuni] /M.Ahmad// Yangi sirdaryo. – 2025. – 17-son.- 1-3b.

4. Primov, G'. Motamsaro ona haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi: [9-may xotira va qadrlash kuni] /G'.Primov//Ma'naviy olam. – 2025. – 5-son.- 1-b.

5. Shavkat, Sh. Vatan unutmaydi qahramonlarni: [9-may xotira va qadrlash kuni] /SH.Shavkat// Jadid. – 2025. – 21(73)-son.- 1-2b.